

“TBC Bank” ATBning “Odat omonati bo‘yicha keshbek” aksiyasini o‘tkazish qoidalarini

2026-yil 01-apreldan amal qiladi.

MUNDARIJA

1. Umumiy shartlar;
2. Atama va ta'riflar;
3. Aksiya tashkilotchisi;
4. Aksiyada ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilar huquq va majburiyatlari;
6. Bank huquq va majburiyatlari;
7. Mas'uliyat;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY SHARTLAR.

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATBning (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) **“Odat omonati bo‘yicha keshbek”** Aksiyaning Qoidalarini (keyingi o‘rinlarda “Aksiya” deb ataladi) fuqarolarning Aksiyada ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.

1.2. Aksiya lotereya, tavakkalchilikka asoslangan o‘yin yoki uning ishtirokchilari uchun mulkiy tavakkalchiliklar yuzaga kelishi bilan bog‘liq boshqa tadbir hisoblanmaydi. Aksiyani o‘tkazish ishtirokchilar tomonidan ishtirok uchun hech qanday to‘lov to‘lashni nazarda tutmaydi.

1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz.

1.4. Aksiya amal qilish muddati:

Aksiyaning boshlanish sanasi: 02.10.2025 yil;

Aksiya tugash sanasi: 30.09.2026 yil.

Aksiyaning amal qilish muddati boshlanish sanasidan tugash sanasigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

1.5. Aksiya o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.

1.6. Aksiya muddati davomida bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga javob beradigan istalgan identifikatsiyalangan Bank Mijozlari Aksiya ishtirokchisi bo‘lishi mumkin:

- Mijozda Karta rasmiylashtirildi va faollashtirildi;
- Mijozning kamida 10 000 000 (o‘n million) so‘mlik omonati ochilgan va faol,
- Mijozning Omonati bo‘yicha o‘rtacha qoldiq o‘tgan kalendar oy davomida kamida 10 000 000 (o‘n million) so‘mni tashkil etgan (o‘rtacha qoldiqni hisoblash o‘tgan kalendar oyning har bir kalendar kuni uchun Omonat bo‘yicha pul mablag‘larining minimal qoldig‘i asosida amalga oshiriladi). Agar Omonat oldingi kalendar oyining boshidan ochilmagan bo‘lsa, Omonat ochilgan sanadan oldingi davr uchun (shu jumladan) qoldiq nolga teng deb qabul qilinadi. Eng kam kunlik qoldiqlar jamlanadi va o‘tgan kalendar oyning kalendar kunlari umumiy soniga bo‘linadi. Eng kam qoldiq o‘tgan kalendar oyining oxirgi ish kunida qayd etiladi. Bunda, ushbu kunning eng kam qoldig‘i shu oydagi barcha keyingi dam olish va bayram kunlariga ham qo‘llanadi;
- Mijoz TBC Stars dasturi doirasida “Odat” chiptasini sotib oldi.

1.7. Bank mahsulotlari va xizmatlarini olish, ulardan foydalanish tartibi va shartlari Bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlar (bundan buyon matnda “BSh” deb yuritiladi), shuningdek, Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasida tanishish mumkin bo‘lgan boshqa shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1.8. Aksiyaning amal qilish muddati davomida omonat ochgan va ushbu Qoidalarning 1.6-bandida

ko'rsatilgan shartlarga javob beradigan Bank mijozi ushbu ommaviy ofertani qabul qilgan va Aksiyada ishtirok etish shartlariga rozilik bildirgan deb hisoblanadi.

2. ATAMA VA TA'RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
Aksiya	“TBC Bank” ATBning “ Odat omonati bo'yicha keshbek ” Aksiyasi
Bankning Mijozi	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
Ishtirokchi	Ushbu qoidalarning 1.6-bandida belgilangan shartlarga javob beradigan Bank mijozi.
Ilova	AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi qurilma smartfonlarda foydalanish mumkin bo'lgan TBC UZ va Payme mobil ilovalari.
Omonat	“Odat” talab qilib olinguncha depoziti Mijoz tomonidan Bank belgilagan shartlar asosida joylashtirilishi mumkin. Joylashtirish shartlari bilan Ilovada va Bankning rasmiy veb-saytida tanishib chiqish imkoniyati mavjud.
Karta	Bank tomonidan chiqarilgan, uning egasiga Bank tomonidan belgilangan shartlarga muvofiq tegishli karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i doirasida to'lov operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi “Salom Card Visa” debet kartasi.
Operatsiya	Karta yordamida tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun to'lov operatsiyasi Quyidagilar Operatsiya hisoblanmaydi: - Mijozning pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha operatsiyalar (hisobvaraqlar, kartalar, Bankning boshqa mijozlari, boshqa banklarning mijozlari o'rtasida); - kreditlar bo'yicha operatsiyalar; - boshqa kredit tashkilotlaridagi operatsiyalar; - depozitlar bo'yicha operatsiyalar; - Ilovaning "To'lovlar" bo'limida xizmatlarga haq to'lash bo'yicha operatsiyalar, - MCC 4829, 5933, 6010, 6011, 6012, 6050, 6211, 6300, 6531, 6532, 6536, 6538, 9223, 9399, 6051, 6540, 5960, 9222, 7276, 9311, 7800, 7801, 7802, 7995, 9754, 6533, 6534, 6537, 6535 da operatsiyalar. Bankning veb-saytida joylashtirilgan Karta Tariflari va/yoki Karta sodiqlik dasturi shartlarida istisno sifatida nazarda tutilgan boshqa operatsiyalar.
Keshbek	Bank tomonidan Aksiya doirasida Ishtirokchiga mazkur qoidalarga muvofiq Karta yordamida amalga oshirilgan Operatsiyalar uchun 1 birlik = 1 so'm hisobidan shartli birliklar hisoblanadi va tegishli karta hisobvarag'iga to'lab beriladi.
Hisobot davri	Mijoz ushbu qoidalarning 1.6-bandida belgilangan shartlarga to'liq muvofiq bo'lgan kalendar oyi.

3. AKSIYA TASHKILOTCHISI

3.1. Aksiya tashkilotchisi - Bank.

3.2. Bankning rekvizitlari: 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B uy. Telefon: +99878 777 2727.

Pochta: contact@tbcbank.uz

4. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

4.1. Ishtirokchi Operatsiyalar summasining 4% miqdorida Keshbek olish huquqiga ega.

4.2. - Keshbek Hisobot davridan keyingi oy davomida hisoblanadi.

Ishtirokchi Keshbek olish uchun quyidagilarni bajarish zarurligini tushunadi:

- 4.2.1 Bir kalendar oy davomida Omonatdagi eng kam qoldiqni saqlab turish;
- 4.2.2 Keyingi kalendar oyida Operatsiyalarni amalga oshirish;
- 4.2.3 Keshbek Operatsiyalar bajarilgan oydan keyingi oyda hisoblab yoziladi.
- 4.3. Keshbekning maksimal miqdori oyiga 500 000 (besh yuz ming) soʻmni tashkil etadi.
- 4.4. Omonat muddatidan oldin yopilgan taqdirda, tegishli Hisobot davri uchun Keshbek olish huquqi yoʻqoladi va Keshbek hisoblanmaydi.
- 4.5. Keshbekni hisoblash, shuningdek, Ilova va Bank veb-saytida joylashtirilgan Karta boʻyicha tarif va Karta egalari uchun Sodiqlik dasturi shartlari bilan tartibga solinadi.

5. ISHTIROKCHILAR HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
 - 5.1.1. Aksiya toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni ushbu Qoidalar, BSh va Bank bilan tuzilgan boshqa shartnomalarda nazarda tutilgan hajmda va tartibda olish;
 - 5.1.2. Ushbu Qoidalarining 1.6-bandida belgilangan mezonlarga rioya qilish sharti bilan ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiya ishtirokchisi maqomini olish.
- 5.2. Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarni oladi:
 - 5.2.1. Aksiyada ishtirok etishdan oldin ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqish. Aksiyada ishtirok etish shuni anglatadiki, Bank Mijozni ushbu Qoidalar bilan tanishganligini tasdiqlaydi va ularning shartlariga toʻliq va soʻzsiz roziligini bildiradi.

6. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiyani oʻtkazish, shuningdek, ishtirok etish shartlarini lozim darajada bajargan Ishtirokchilarga Keshbek taqdim etish boʻyicha majburiyatlarini bajarish majburiyatini oladi.
- 6.2. Ushbu Aksiya ushbu Qoidalarining 1.4-bandida belgilangan butun amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinmaydi.
Bank Aksiyaning amal qilish muddatini bir tomonlama uzaytirish huquqiga ega. Uzaytirish toʻgʻrisidagi maʼlumotlar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va/yoki mijozlarga har qanday boshqa mavjud aloqa usullari orqali yetkaziladi, jumladan, mobil ilovaga xabarlar yuborish, SMS, push-bildirishnomalar va/yoki elektron pochta orqali cheklanmagan holda.
- 6.3. Bank, Aksiya ishtirokchilarini identifikatsiyalash va ularni suiisteʼmol qilishning oldini olish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, Aksiya maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan hajmda, ishtirokchilarning shaxsiy maʼlumotlarini, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, mijoz bilan oʻzaro munosabatlar davomida olingan anketa maʼlumotlari, hujjatlar, maʼlumotlarni soʻrash va qayta ishlash huquqiga ega.
- 6.4. Bank Keshbekni hisoblash shartlariga bir tomonlama oʻzgartirishlar kiritish, shuningdek, Aksiya haqidagi qoʻshimcha maʼlumotlarni quyidagi rasmiy veb-saytda eʼlon qilish huquqini oʻzida saqlab qoladi: <https://tcbank.uz>.
- 6.5. Mijoz faqat Bank tomonidan Ishtirokchining ushbu Aksiya shartlariga muvofiqligini tekshirish yakunlangandan soʻng, shuningdek, Ishtirokchi tomonidan suiisteʼmolchilik, qoidabuzarlik yoki boshqa shubhali yoxud gʻayriqonuniy xatti-harakatlar mavjud boʻlmaganda Keshbekni olishga daʼvo qilishi mumkin.
Bank asosli fikriga koʻra Ishtirokchi quyidagi hollarda Keshbek taqdim etishni rad etish huquqiga ega:
 - ushbu Qoidalarni buzganda;
 - Aksiya shartlaridan vijdotsizlarcha foydalanganda;
 - noqonuniy foyda olishga qaratilgan harakatlarni sodir etganda;
 - Aksiya shartlarini boshqacha tarzda suiisteʼmol qilganda.
- 6.6. Ushbu Qoidalarining 6.5-bandida koʻrsatilgan hollarda, Bank oʻz ixtiyoriga koʻra quyidagi huquqlarga ega:
 - a) ilgari hisoblangan Keshbekni bekor qilish;

- b) Mijozga kelgusida Aksiyada ishtirok etishni rad etish;
 - v) Mijozni Aksiya bo'yicha Keshbek olish huquqidan mahrum qilish;
 - g) Mijozning kelgusi aksiyalar, yutuqli o'yinlar va sodiqlik dasturlarida ishtirokini to'xtatish yoki bloklash;
 - d) Mijoz hisobining amal qilishini vaqtincha yoki butunlay to'xtatib qo'yish.
- 6.7. Aksiya shartlarini suiiste'mol qilish sifatida, jumladan, quyidagi harakatlar ko'rib chiqiladi:
- bir nechta shaxs yoki bir shaxs tomonidan bir nechta hisob qaydnomalarining yaratilishi;
 - Aksiyada ro'yxatdan o'tish yoki ishtirok etishda noto'g'ri, yolg'on yoki soxta ma'lumotlarni taqdim etish;
 - ijtimoiy tarmoqlarda, internet-saytlarda, forumlarda, qidiruv tizimlarida yoxud axborotni ommaviy joylashtirish va/yoki ommaviy tarqatishning boshqa usullarida noto'g'ri, g'ayriqonuniy yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotni tarqatish;
 - hisob qaydnomasining egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga hisobdan foydalanishga ruxsat berish.

7. MAS'ULIYAT

- 7.1. Agar majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmasligi Aksiyaning amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan texnik nosozliklar, uzilishlar, axborot yoki dasturiy tizimlardagi xatoliklar, shuningdek, uchinchi shaxslarning, jumladan, Bank hamkorlari va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarining harakati (yoki harakatsizligi) oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, Bank ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan bunday holatlar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 7.2. Bank Aksiyada ishtirok etish doirasida Ishtirokchilarning xatti-harakatlari uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 7.3. Ushbu Qoidalarning 7.1-bandida ko'rsatilgan hollarda, Bank o'z tizimlarida, shuningdek, Aksiyani joriy etishda ishtirok etuvchi hamkorlar yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tizimlarida yuzaga kelgan texnik nosozliklar, xatolar va boshqa muammolarni bartaraf etish muddatlarini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega.
- 7.4. Agar bunday imkoniyatsizlik uchinchi shaxslarning, jumladan Bankning hamkorlari, ta'minotchilari va boshqa kontragentlarining ushbu Aksiya shartlarining buzilishiga olib kelgan qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan qilgan harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Bank ushbu Qoidalar bo'yicha majburiyatlarni bajara olmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladi.
- 7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar BShga, Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinishi kerak.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 8.1. Ushbu Qoidalardan yoki ular bilan bog'liq holda kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasidagi o'zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar asosida sudgacha hal etilishi lozim. Da'vo tartibi nizolarni ko'rib chiqishning majburiy sharti hisoblanadi.
- 8.2. Agar Tomonlar ushbu Qoidalarning 8.1-bandida nazarda tutilgan tartibda nizoli masalalar bo'yicha kelishuvga erishmagan bo'lsalar, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bank ro'yxatdan o'tgan joydagi sud tartibida hal etilishi lozim.

9. BOSHQA SHARTLAR

- 9.1. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-sayti www.tbcbank.uz manzilida joylashtirilgan.
- 9.2. Aksiya ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan veb-saytda joylashtirilgan o'zgarishlar va yangilanishlarni muntazam ravishda tekshirib, Aksiya shartlarining dolzarbligini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.
- 9.3. Bank mijozni TBC UZ mobil ilovasining "Qayta aloqa" bo'limi orqali tegishli xabarnoma yuborish

yo'li bilan ushbu Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.

9.4. Bank xodimlari, Bank bilan affilangan tashkilotlar xodimlari, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas.